

**ANIQ VA IJTIMOIIY FANLAR UNIVERSITETIDA O‘QITISH UCHUN
IKKI TOMONLAMA TO‘LOV-KONTRAKT
SHARTNOMASI № AIFU/M-XTVAITM /2025-2026/064753**

Toshkent shahri	26/07/2025
-----------------	------------

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 2022-yil 28-dekabrda oliy ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish faoliyati uchun berilgan 410326-litsenziya egasi, **Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti** nodavlat oliy ta’lim tashkiloti mas’uliyati cheklangan jamiyat qo‘shma korxona(keyingi o‘rinlarda matnda **Universitet** deb yuritiladi) nomidan uning ustaviga muvofiq ish ko‘ruvchi rektor **BOTIROV G‘OLIBJON ISROILOVICH**, bir tarafdin, keyingi o‘rinlarda **Talaba (41102881670017) - GULRUX URAZOVA ABDUXOSHI MOVNA** ikkinchi tarafdin, birgalikda **Taraflar** deb belgilanadi, quyidagilar to‘g‘risida ushbu shartnomani tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur Shartnomaga asosan Universitet **2025-2026 o‘quv** yilidan boshlab, Talabani quyida ko‘rsatilgan Magistratura ta’lim yo‘nalishi va ta’lim shakli bo‘yicha oliy ta’limning davlat ta’lim standartlari, malaka talablari, o‘quv reja va dasturlariga muvofiq o‘qitish majburiyatini oladi.

Ta’lim bosqichi:	Magistr
Ta’lim shakli:	Kunduzgi
Ta’lim tili:	O‘zbek
O‘qish muddati(tugash yili):	2 yil (2027)
O‘quv kursi:	1-kurs
Ta’lim yo‘nalishi:	Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili (magistratura)

Talaba ushbu shartnomaning shartlariga muvofiq xizmatlarni qabul qilish va Universitetga xizmatlar qiymatini mazkur shartnoma 3-bobida ko‘rsatilgan muddatlarda va miqdorda to‘lash majburiyatini oladi.

1.2. Mazkur shartnoma bo‘yicha to‘lov amalga oshirilgach, bank to‘lov topshiriqnomasi yoki kvitansiya nusxasi Universitetga taqdim etilganidan so‘ng to‘lov Universitetning hisob-varag‘iga kelib tushganligi tasdiqlanishi bilan Talabaning o‘qishga qabul qilinganligi to‘g‘risida Universitet tomonidan buyruq chiqariladi.

1.3. Talaba to‘lov shartnomasini Universitetning qabul.aifu.uz yoki shartnoma.edu.uz rasmiy saytlaridan elektron tarzda oladi, to‘lov shartnomasini olgan talaba ushbu shartnomaning barcha shartlariga rozi bo‘lgan hisoblanadi.

2. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

2.1. Universitetning huquqlari:

2.1.1. Talabadan shartnoma majburiyatlarini bajarishni talab qilish;

2.1.2. Mazkur shartnomada kelishilgan shartlar Talaba tomonidan bajarilmasa, shartnomani bir taraflama bekor qilish;

2.1.3. Talaba Universitetning ichki tartib qoidalarini va boshqa hujjatlarida belgilangan qoidalarni qo‘pol ravishda buzgan, xususan huquqbuzarlik sodir etgan, sud tomonidan hukm qilingan hollarda Shartnomani bir tomonlama bekor qilish;

2.1.4. Mazkur shartnoma bo‘yicha Talaba tomonidan tegishli to‘lov kechiktirilganda yoki ichki tartib qoidalari buzilganda Talabaga nisbatan intizomiy jazo chorasini qo‘llash, Talabaning o‘quv binosiga kirishi yoki Universitetning resurslaridan foydalanish huquqini cheklash, Talabani talabalar safidan chiqarish yoki o‘qishdan vaqtinchalik chetlashlashtirish yoki mazkur shartnomada ko‘zda tutilgan boshqa jazo chorasini qo‘llash bo‘yicha qaror qabul qilish.

2.1.5. Istisno tariqasida Shartnoma bo‘yicha to‘lov muddatlarini (Universitet rektorining buyrug‘i orqali) uzaytirish;

2.1.6. Ta’lim xizmatlari soni va sifatini pasaytirmagan holda tasdiqlangan o‘quv mashg‘ulotlari jadvaliga o‘zgartirishlar kiritish, zarur hollarda o‘quv jarayonini onlayn tarzda tashkil etish, dars mashg‘ulotlarini, oraliq va

yakuniy imtihonlarni onlayn o'tkazish;

2.1.7. Talabani qoniqsiz o'zlashtirishi tufayli kursni yoki bir nechta fan qayta o'qitilsa, ushbu shartnomaning 3.1-bandiga muvofiq o'rganilayotgan (qayta o'qitiladigan) akademik kreditlar miqdori bo'yicha to'liq ta'lim xarajatlari Talaba tomonidan to'lanmagan taqdirda shartnomani bir tomonlama bekor qilish;

2.1.8. Talaba o'qish davrida Universitetning ruxsatisiz O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqqanligi ma'lum bo'lganda shartnomani bir tomonlama bekor qilish;

2.1.9. Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori o'zgarishi bilan mos ravishda Shartnoma bo'yicha to'lov miqdorini o'zgartirish.

2.2. Universitetning majburiyatlari:

2.2.1. Talabaga doir ma'lumotlarni sir saqlaydi;

2.2.2. Talabalarning qonunchilik hujjatlarida belgilangan huquqlarining bajarilishini ta'minlaydi.

2.2.3. Talabani tasdiqlangan malaka talablari, o'quv reja va dasturlarga muvofiq davlat standarti talablari darajasida o'qitadi.

2.2.4. Talaba ta'lim yo'nalishini muvaffaqiyatli tamomlaganda belgilangan tartibda diplom beradi.

2.2.5. Talaba belgilangan muddatda shartnoma miqdorining 25% to'lovni amalga oshirganidan so'ng talabalar safiga qabul qiladi.

2.2.6. O'quv jarayonini boshlanishi haqida Universitet rasmiy kanallarida e'lon qilish, talabalarni har birini telefon yoki xat orqali bu jarayonni boshlanishi haqida ogohlantirishni o'z majburiyatiga olmaydi, sirtqi ta'lim shaklida tahsil oluvchi talabalariga Hemis elektron platformasida chaqiruv qog'ozi rasmiylashtiriladi, kunduzgi va kechki talabalarga o'quv jarayoni boshlanishi bo'yicha bo'yicha rasmiy kanallarda e'lon qiladi.

2.3. Talabani huquqlari:

2.3.1. Talabaga doir ma'lumotlarni sir saqlashni talab qilish;

2.3.2. Universitetdan shartnomaviy majburiyatlari bajarilishini talab qilish.

2.3.3. Universitetda tasdiqlangan malaka talablari, o'quv reja va dasturlarga muvofiq davlat standarti talablari darajasida ta'lim olish.

2.3.4. Universitetning Axborot-resurs markazi, sport inshooti, Wi-Fi hududlaridan foydalanish.

2.3.5. Mazkur shartnoma shartlariga muvofiq Universitet tomonidan ko'rsatilgan (ko'rsatiladigan) xizmatlar haqini o'z vaqtida va to'liq hajmda to'lanishini nazorat qilish;

2.3.6. Universitetning ta'lim jarayonlarini yaxshilashga doir takliflar berish.

2.3.7. O'qish uchun bir yillik to'lov summasini bir yo'la to'liq to'lash;

2.3.8. Qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda Universitetning buyruq va topshiriqlari ustidan shikoyat qilish;

2.3.9. Qonunchilik hujjatlarida, shuningdek, Universitetning lokal hujjatlarida belgilangan boshqa huquqlardan foydalanish.

2.4. Talabani majburiyatlari:

2.4.1. Mazkur shartnomaning 1.1-bandida ko'zda tutilgan xizmatlarni ko'rsatish uchun zarur bo'ladigan barcha hujjatlarni Universitetga o'z vaqtida to'liq hajmda taqdim etish;

2.4.2. Universitet Ustavi va boshqa ichki hujjatlari, shu jumladan o'quv tusdagi hujjatlar bilan tanishadi va ularning talabalariga qat'iy rioya qiladi.

2.4.3. O'quv mashg'ulotlarida belgilangan tartib va qoidalarga muvofiq ishtirok etadi.

2.4.4. Etika qoidalariga rioya qilish, tinglovchilar (talabalar) va pedagoglarga hurmat bilan munosabatda bo'lish;

2.4.5. Fanlardan o'zlashtirish ko'rsatkichlarini, jumladan nazorat turlaridan qo'yilgan natijalarini mustaqil ravishda bilib borish.

2.4.6. Universitetbelgilangan tartib va qoidalarga muvofiq ta'lim olish hamda o'z bilim darajasini oshirib borish;

2.4.7. Atrofdagi shaxslar tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarlikni sodir etish yoki unda qatnashishga tayyorgarlik ko'rish sifatida baholanishi mumkin bo'lgan xulq-atvordan o'zini tiyish;

2.4.8. O'zining xatti-harakatlari, OAV va ijtimoiy tarmoqlardagi chiqishlari bilan universitetning ishchanlik obro'si va manfaatlariga putur yetkazmaslik hamda zarar yetkazishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlarini sodir etishdan tiyilish;

2.4.9. Universitetrektorining, shuningdek, rahbariyat topshiriqlarini o'z vaqtida sifatli va aniq bajarish;

2.4.10. To'lov amalga oshirilayotganda to'lovning maqsadini ko'rsatish –Talabaning familiyasi, ismi va otasining ismi, mazkur shartnomaning raqami va tuzilgan sanasi. Amalga oshirilgan to'lovning tasdiqlovchi hujjatini Universitetning buxgalteriyasiga taqdim qilish;

2.4.11. Universitetning mol-mulkiga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish va undan samarali foydalanish, yetkazilgan zararni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ravishda qoplash;

2.4.12. Talabaning qoniqarsiz o'zlashtirishi tufayli kursni yoki bir nechta fan qayta o'qitilsa, ushbu shartnomaning 3.1-bandiga muvofiq o'rganilayotgan (qayta o'qitiladigan) akademik kreditlar miqdori bo'yicha to'liq ta'lim xarajatlari to'lash;

2.4.13. O'qish davrida Universitetning ruxsatisiz O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqmaslik.

3. KURSLAR KESIMIDA TO'LOV MIQDORLARI VA MUDDATLARI

3.1. Mazkur shartnoma bo'yicha Talaba tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan to'lov summasi **19 900 000 (o'n to'qqiz million to'qqiz yuz ming)** QQS siz so'mni tashkil etadi va Shartnomaning ushbu bobida belgilangan tartibda to'lanadi.

3.2. **Kunduzgi ta'lim** shakli talabalari tomonidan mazkur shartnomaning 3.1 bandida ko'rsatilgan shartnoma to'lovi 4 qismga bo'lib quyida ko'rsatilgan muddatlarda to'laydi.

a) birinchi yarim yillik uchun: 25 foizini 2025-yil 1-sentyabrgacha, qolgan 25 foizini 2025-yil 15-dekabrgacha;

b) ikkinchi yarim yillik uchun: 25 foizini 2026-yil 1-martgacha, qolgan 25 foizini 2026-yil 15-maygacha;

3.3. **Kunduzgi ta'lim** shakli **1-kurs** talabalari uchun Shartnoma to'lovining **100 FOIZ TO'LOVIGA NISBATAN umumiy hisobda bir martalik** chegirmalar quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) buyurtmachi va/yoki Talaba shartnoma to'lovini **2025-yil 1-avgustga** qadar:

– **15 foizli** chegirmasidan foydalanish uchun **16 915 000 (o'n olti million to'qqiz yuz o'n besh ming)** so'm to'lashi kerak;

b) buyurtmachi va/yoki Talaba shartnoma to'lovini **2025-yil 1-sentyabrga** qadar:

– **10 foizli** chegirmasidan foydalanish uchun **17 910 000 (o'n yetti million to'qqiz yuz o'n ming)** so'm to'lashi kerak;

3.3.1. **Kunduzgi ta'lim** shaklining **1-kurs** talabalari uchun Shartnoma to'lovining **50 FOIZ TO'LOVIGA NISBATAN umumiy hisobda bir martalik** chegirmalar quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) buyurtmachi va/yoki Talaba shartnoma to'lovini **2025-yil 1-avgustga** qadar:

– **15 foizli** chegirmasidan foydalanish uchun **8 457 500 (sakkiz million to'rt yuz ellik yetti ming besh yuz)** so'm to'lashi kerak, shunda shartnomaning umumiy qiymati **18 407 500 (o'n sakkiz million to'rt yuz yetti ming besh yuz)** so'mni tashkil qiladi.

b) buyurtmachi va/yoki Talaba shartnoma to'lovini **2025-yil 1-sentyabrga** qadar:

– **10 foizli** chegirmasidan foydalanish uchun **8 955 000 (sakkiz million to'rt yuz ellik yetti ming besh yuz)** so'm to'lashi kerak, shunda shartnomaning umumiy qiymati **18 905 000 (o'n sakkiz million to'qqiz yuz besh ming)** so'mni tashkil qiladi.

3.4. Talaba tomonidan Shartnoma bo'yicha o'qitish qiymatini to'lashda to'lov topshiriqnomasida Talaba haqida ma'lumotlar hamda talabaning ism familiyasi va to'lov maqsadi to'liq ko'rsatiladi.

3.5. O'qishni davom ettirish istagi bo'lmagan Talaba arizasiga asosan, Universitet talabani talabalar safidan chiqarish haqidagi buyrug'i chiqariladi hamda Talabaning o'qigan davriga mutanosib ravishda shartnoma to'lovi qaytarib qolinadi va qolgan qismi talabaga qaytariladi.

3.6. Talaba hali boshlanmagan mashg'ulotlar (semestr) uchun to'langan pulni qaytarib olishi mumkin. Buning uchun talaba keyingi o'quv davri (semestr) boshlanishidan kamida 10 kalendar kuni oldin o'z xohishi bilan talabalar safidan chiqarish va shartnoma summasini qaytarish to'g'risida yozma ariza bilan murojaat qilishga majburdir. Bunda shartnoma summasi 30 kalendar kuni ichida to'lovning umumiy miqdoridan 10% chegirib qaytariladi. Semestr o'rtasida esa, o'z xohishi bilan talabalar safidan chiqarilgan sanadan qayta hisob-kitob qilinadi.

3.7. Talabaning shartnoma to'lovlari Ta'lim krediti yoki boshqa Ijtimoiy jamg'armalar hisobidan qoplangan taqdirda, qaytariladigan pul summasi faqat o'sha tashkilot va/yoki muassasaga qaytariladi.

3.8. Talabaning qoniqarsiz o'zlashtirishi tufayli kurs yoki bir nechta fan qayta o'qitilsa, o'rganilayotgan (qayta o'qitiladigan) akademik kreditlar miqdori bo'yicha to'langan pullar qaytarilmaydi;

3.9. Quyidagi hollarda Talaba o'qishdan chetlashtirilganda amalga oshirilgan o'qish uchun to'lov qaytarib berilmaydi:

a) o'quv intizomini va Universitetning ichki tartib qoidalarini buzganligi;

b) bir semestr davomida darslarni uzrli sabablarsiz 74 soatdan ortiq qoldirganligi (sirtqi ta'lim shaklidagilardan tashqari);

c) o'qitish uchun belgilangan miqdordagi to'lovni o'z vaqtida amalga oshirmaganligi;

d) belgilangan muddatlarda fanlarni o'zlashtira olmaganligi.

3.10. Shartnoma to'lovlari va ularni qaytarish bilan bog'liq barcha bank xizmatlari Talaba tomonidan to'lanadi.

4. SHARTNOMANI BEKOR QILISH VA O'ZGARTIRISH

4.1. Shartnoma quyidagi hollarda bekor qilinadi:

4.1.1. Tomonlarning o'zaro roziligi bilan.

4.1.2. Universitetning tashabbusiga ko'ra ichki tartib qoidalarini va boshqa me'yoriy hujjatlariga muvofiq Talaba talabalar safidan chiqarilganda.

4.1.3. O'qitish qiymati shartnomada belgilangan muddat ichida to'lanmasa(bunda, Universitet shartnomani bir tomonlama bekor qiladi, Talaba talabalar safidan chiqariladi).

4.1.4. Talabaning tashabbusiga ko'ra (yozma murojaatga asosan).

4.1.5. Qonunchilikda ko'rsatilgan boshqa hollarda.

4.1.6. Shartnomaning tegishli bandlariga o'zgartirishlar kiritish, qo'shimcha kelishuv Shartnomasi asosida amalga oshiriladi va ushbu kelishuv shartnomaning ajralmas qismi sifatida e'tirof etiladi.

5. FORS-MAJOR HOLATLARI

5.1. Ushbu Shartnomaga asosan majburiyatlarni bajarilmasligi holatlari yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlar natijasida vujudga kelganda Taraflar o'z majburiyatlarini bajarishdan qisman yoki to'liq ozod bo'ladilar.

5.2. Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlariga Taraflarning irodasi va faoliyatiga bog'liq bo'lmagan tabiat hodisalari (pandemiya, zilzila, ko'chki, bo'ron, anomal sovuq, qurg'oqchilik va boshqalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko'zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda Taraflarga qabul qilingan majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlar kiradi.

5.3. Shartnoma Taraflardan qaysi biri uchun majburiyatlarni yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari sababli bajarmaslik ma'lum bo'lsa, darhol ikkinchi tomonga bu haqda 10 kun ichida dalillar bilan taqdim etishi shart.

5.4. Fors-major holatlarning mavjudligi va ularning amal qilish muddati O'zbekiston Respublikasi davlat vakolatli organi tomonidan berilgan hujjat bilan tasdiqlanadi.

6. YAKUNIY QOIDALAR

6.1. Shartnoma bevosita Taraflar tarafidan imzolangan paytdan e'tiboran kuchga kiradi;

6.2. Shartnomaning elektron ko'rinishda olingan shakli ham Taraflar tomonidan imzolangan deb hisoblanadi va olingan paytda e'tiboran kuchga kiradi;

6.3. Mazkur shartnoma teng yuridik kuchga ega bo'lgan va har bir taraf uchun bir nusxasi beriladigan ikki nusxada tuzildi.


6.4. Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori o'zgarganda mos ravishda mazkur shartnomaning 3.1.bandida ko'rsatilgan to'lov-kontrakt qiymati miqdori navbatdagi semestr boshidan oshiriladi. Bunday holda, Universitet talabani kamida 15 kalendar kun oldin o'zgarish haqida xabardor qiladi.

6.5. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan Taraflar qonunchilikda belgilangan javobgarlikka tortiladi.

6.6. Ushbu kontraktning bajarish jarayonida kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizo va ziddiyatlar tomonlar o'rtasida muzokaralar olib borish yo'li bilan hal etiladi. Muzokaralar olib borish yo'li bilan nizoni hal etish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, tomonlar nizolarni hal etish uchun amaldagi qonunchilikka muvofiq iqtisodiy sudga murojaat etishlari mumkin.

7.TARAFLARNING MANZILLARI VA MA'LUMOTLARI

7.1. Ta'lim muassasasi: Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti Pochta manzili: Manzil: Toshkent shahri, Olmazor tumani, Gani Azamov MFY, Oltinsoy ko'chasi, 1-uy E-mail: info@aifu.uz Tel.: +998 78 555 21 21 Bank rekvizitlari: Bank nomi: O'zsanoatqurilishbank ATB Olmazor bank xizmatlari markazi H/R: 20208000205578638002 STIR: 309936022 MFO: 00440 Ta'lim muassasasi rahbari: _____ Botirov G'.I.	7.2. Ta'lim oluvchi: F.I.Sh.: 41102881670017 - GULRUX URAZOVA ABDUXOSHOVNA Yashash manzili: JIZZAX SHAHRI, Pasport ma'lumotlari: AD0492512 Telefon raqami: +998915641188 "Shartnomaning mazmuni bilan to'liq tanishib chiqdim va uning barcha bandlarini e'tirof etgan holda tuzishga roziman" Ta'lim oluvchining imzosi: _____
--	--



Litsenziya berilgan sana va raqami
28.12.2022 № 410326